

**MUSIQA TO‘GARAKLARINI TASHKIL ETISHDA MILLIY
CHOLG‘ULARDAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI.**

Raximov Ravshan Naimovich

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Musiqa va tasviriy san’at”
kafedrasi dotsenti.*

Sharipov Oxunjon Shavqiddin og‘li

*Buxoro davlat pedagogika instituti “Musiqa ta ’limi va san’at”
yo ‘nalishi magistranti*

Annotatsiya: Maqolada musiqa to‘garaklarini tashkil etishda milliy cholg‘u asboblarining o‘rnini ayniqsa qashqar rubobining kelib chiqishi rivojlanishi va hozirgi kundagi ahamiyati hamda Qashqar rubobining tuzilishi haqida ma’lumotlar berilgan. Milliy musiqa va milliy cholg‘ularni rivojlantirish haqidagi president qarorlari kiritilgan.

Kalit so‘zlar: Qashqar rubob, prezident qarorlari, 5 tashabbus, milliy cholg‘ular, “Musiqa haqida risola”

**ЗНАЧЕНИЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ
В ОРГАНИЗАЦИИ МУЗЫКАЛЬНЫХ КРУЖКОВ.**

Рахимов Равшан Наимович

Бухарский государственный педагогический институт “музыка и изобразительное искусство” доцент кафедры.

Шарипов Ахунджон Шавкидин оглы

Бухарский государственный педагогический институт “музыкальное образование и искусство” направление магистрант

Аннотация: В статье рассказывается о роли национальных музыкальных инструментов в организации музыкальных кружков, особенно о происхождении, развитии и современном значении Кашгарского рубаба, а также о его конструкции. Приведены указания на президентские постановления, касающиеся развития национальной музыки и национальных инструментов.

Ключевые слова: Кашгарский рубаб, президентские постановления, 5 инициатив, национальные музыкальные инструменты, “Трактат о музыке”

**THE IMPORTANCE OF USING NATIONAL INSTRUMENTS IN THE
ORGANIZATION OF MUSICAL CIRCLES.**

*Rakhimov Ravshan Naumovich**Bukhara State Pedagogical Institute**"Music and Fine Arts" Associate professor of the department.**Sharipov Akhunjon Shavkiddin ogly**Bukhara State Pedagogical Institute "Music Education and Art" Master's degree*

Abstract: The article highlights the role of national musical instruments in the organization of music clubs, with a particular focus on the origin, development, and modern significance of the Kashgar rubab, as well as its design. It also includes references to presidential decrees concerning the development of national music and musical instruments.

Keywords: Kashgar Rubab, Presidential Decrees, Five Initiatives, National Musical Instruments, "Treatise on Music"

Xalqimizning beba ho boyligi bo'lmish milliy cholg'ularimiz o'zining betakrorligi, jozibadorligi, ovoz tarovatining rang-barangligi va ijro imkoniyatlarining cheksizligi bilan milliy musiqiy madaniyatimizda o'rni beqiyos. Ayniqsa cholg'u ijrochiligi san'ati ajdodlar tomonidan asrlar davomida noyob estetik vosita sifatida shakllanib, nafaqat musiqa ilmida, balki zamonaviy musiqa ijodiyotida ham katta qiziqish uyg'otib kelmoqda

Milliy cholg'ular insoniyat manaviyatini ohanglarda tarannum etuvchi vosita, ya'ni xalq ijodiyoti mahsuli bo'lib, azal-azaldan omma orasida shakllanib, mohir soz ustalari tomonidan yasalib tobora mukallashib kelayotgan mo'jizaviy va ifodaviy asboblardir. Shuning uchun hozirgi paytda yurtimizda musiqaga katta e'tibor berilmoqda. Yosh avlodni bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish uchun musiqa va sport eng yaxshi mashg'ulotlardan biridir. Shuning uchun muhtaram yurtboshimiz qarorlari bilan 2022-2023 o'quv yilidan boshlab umumiyo'rta ta'lim muassasalarida o'quvchilarga milliy musiqa cholg'ulardan kamida bittasini chola olish mahorati o'rgatilsin, va bu ularning shahodatnomasida qayd etilsin degan qarorni qabul qilindi. Qarorga muvofiq 10130 ta maktab, 323ta bolalar musiqa maktabi, 826ta madaniyat markazi 7 turdag'i milliy cholg'u bilan 3 to'plamdan ta'minlansin deb ta'kidlaganlar. Buning uchun 205 mlrd so'm mablag' ajratilgan. Bu qarorga muvofiq musiqa fani o'qituvchilari milliy cholg'ulardan kamida bittasini 2023-2024 o'quv yilidan boshlab esa kamida uchtasini chala olish mahoratiga ega bo'lish majburiy etib tayinlandi¹. Bunda o'qituvchilar kunu-tun o'qib izlanib bolalarni musiqaviy bilimlarini yanada oshirishlari zarur.

Bu islohotlar yoshlarni musiqiy bilim ko'nikmalarini oshirish, uning qalbida milliyligimizni anglatadigan cholg'ular va musiqani jo etish uchun olib borilmoqda.

¹ Gazeta.uz

Hozirga davrda milliy musiqa va milliy asboblarga juda katta e'tibor berilmoqda..Hattoki ularni yaxshi o'rganish uchun o'quvchilarga milliy cholg'ular, tasviriy va amaliy san'at, hunarmandchilik yo'nalishi amaliy to'garaklar tashkil etish uchun 2022-yilning o'zida 92 mlrd so'm mablag' ajratildi. "Hayotimga hamrohdir cholg'u" shiori ostida cholg'u ijrochiligi dars mashg'ulotlari yo'lga qo'yildi.

Eng yaxshi sarmoya bilimga sarflangan sarmoyadir.Chunki bilimli kishi hech qachon xor bo'lmaydi.Bilimli kishini dunyoqarashi fikrlash doirasi keng bo'ladi.Jamiyatda ham o'rni alohida bilinib turadi.

Muhtaram prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyev 2019- yil mart oyida 5 tashabbusni ilgari surdi. Bu yoshlarni madaniyat, san'at va sportga keng jalb etish, ularda zamonaviy axborot texnologiyalaridan to'g'ri foydalanish ko'nikmasini shakllantirish, kitobxonlik madaniyatni yuksaltirish, xotin-qizlar bandligini ta'minlash vazifalarini o'z ichiga oladi. Besh tashabbuslardan **birinchisi** "Musiqa, rassomchilik, adabiyot,teatr va san'at; **ikkinchisi** "Yoshlarni jismoniy chiniqtirish, ularning sport soxasida qobiliyatini namoyon qilish";**uchinchisi** "Aholi yoshlar o'rtasida kompyutrx texnologiyalari va internetda samarali foydalanishi" **to'rtinchisi** "Yoshlar manaviyatini yuksaltirish ular o'rtasida kitobxonlikni keng targ'ib qilish"; **beshinchisi** xotin qizlarni ish bilan taminlash.²

Bu tashabbuslardan birinchisi "Yoshlarni musiqa,rassomlik, adabiyot,teatr va san'atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, istedodini oshirishga, iste'dodini yuzaga chiqarishga xizmat qiladi. Chunki san'at bilan shug'ullangan insonlar madaniyatli ma'rifatli yetuk inson sifatida rivojlanadi.Musiqa bilan shug'ullangan insondan yomonlik chiqmaydi.Chunki musiqa inson qalbini poklaydi uni yaxshilikka davat etadi.

Milliy cholg'u asboblar ham milliy musiqa kabi o'zligimizni anglashga yordam beradi. Maktablarda musiqa to'garaklarini tashkil etishda muilliy musiqa cholg'ularining o'rni beqiyosdir. Ayniqsa milliy cholg'ulardan tuzilgan ansamblida o'zbekona milliy ruhda yozilgan asarlar ijro etilsa, milliy cholg'ularimiz bo'l mish; doira, dutor, g'ijjak, chang, nay, ruboblardan taralgan ohanglalar kishiga zavq-shavq bag'ishlaydi va o'zligini tanishida ma'naviy vosita bo'ladi go'yo. Milliy asboblarimizning tembri ovozi tuzilishi jihatdan juda qulay hisoblanadi. Har bir milliy cholg'uning alohida o'rni bor. Bular o'z o'rnini to'ldirib turadi Masalan birgina rubob milliy asbobini olsak. Ovoz jihatidan tuzilishi jihatidan qulay asboblardan biridir. Hattoki bu cholg'u asbobi o'zbek xalq cholg'u orkestrida ham o'zining o'rniga ega.

Rubob cholg'u asbobi Markaziy Osiyo xalqlari o'zbeklar tojiklar, uyg'ular orasida qadimiy va ommalashgan cholg'ulardan biri hisoblanadi. Qashqar rubobining asosan qachon va qayerda paydo bo'lganligi haqida aniq ma'lumotlar yo'q. Shunga qaramay tarixiy manbalarda "rabob", "rebab", "rubob" deb ko'plab ma'lumotlarda

² Yangi O'zbekiston gazetasi

uchraydi.Xususan XVII asrda Buxoroda yashab ijod qilgan Darvish Ali Changiyning “Musiqa haqida risola” asarida XVI-XVII asrlardagi cholg‘ular va sozandalar haqida ma’lumotlar keltirilgan.Tanbur, ud, chang, qonun, rubob, qo‘biz, g‘ijjak kabi asboblar o‘sha davrning keng qo‘llanilgan cholg‘ularidan hisoblangan.O‘zbek kompozitorlaridan M.Mirzayev va havaskor musiqachilar orqali 1940-yillarda O‘zbekiston va Afg‘onistonda keng tarqaldi. Qashqar rubobi orkestrlarda yakka soz sifatida qo‘llaniladi³. XX asrning 40-50 yillaridan boshlab Toshkent Davlat Konservatoriysi qoshida cholg‘ularni o‘rganish va takomillashtirish maqsadida professor A.I Petrosyans boshchiligida eksperimental labaratoriya tashkil qilinib unda o‘zbek xalq cholg‘ular qayta ishlana boshlandi. Jumladan qashqar rubobi qayta ishlanib prima ,alt,messo-soprano kabi turlari yaratildi.Natijada qashqar rubobida o‘zbek xalq musiqasi bilan birga ko‘plab boshqa xalqlar kuylari va kompozitorlar asarlarini ijro etish imkoniyati paydo bo‘ldi va asta-sekinlik bilan qashqar rubobi keng qo‘llanila boshlandi.⁴

Qashqar rubobining ovozi jarangdorligi, qulayligi sababli mакtabgacha ta’lim dargohlarida, maktablarda va hattoki oliv ta’limda ham ijro etiladi. Qashqar rubobining diapazoni 3 oktavaga yaqin. Dastasidagi pardalar 24 ta bo‘lib bu pardalar metalldan qilinadi. Har bir parda orasi yarim tondan tashkil topgan. Qashqar rubobi uch qismdan iborat bo‘lib, bosh qism, dasta yoki grif qismi va kosa qismi deb ataladi. Qashqar rubobida 5 ta tor mavjud bo‘lib, birinchi ikkita juft torlar birinchi oktava lya tovushida sozlanadi, ikkinchi ikkitata juft torlar birinchi oktava mi tovushida sozlanadi, uchinchi yakka tor kichik oktava si tovushida sozlanadi, Qashqar rubobini mediator bilan ijro etiladi. Qashqar rubobini cholish qulayligi sababli ko‘plab musiqa o‘qituvchilar dars jarayonida va to‘garak mashg‘ulotlarida undan keng va unumli foydalanadilar. Bu esa o‘quvchi yoshlarni milliy cholg‘ularimizni sevib o‘rganishga, hamda milliy musiqamizni qadrlashga, bir so‘z bilan aytganda milliylikka undaydi.

Xulosa qilib aytganda milliy cholg‘ularimiz ayniqsa Qashqar rubobu o‘tmishda ham, hozirda va kelajakda ham o‘zining jarangdor ovozi hamda qulay ijrosi uchun mavqeini yo‘qotmaydi.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Raspublikasi Prezidentining qarori, 02.02.2022 yildagi PQ-112-son O.F. Nazarov “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti”. Toshkent-2008
2. Равшан Наимович Рахимов. "Учебная мотивация у школьника, через пения в хоре" Science and Education, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1570-1575
3. Равшан Наимович Рахимов. "Музыка как наука для формирования личности и основа организации музыкального образования и воспитания" Science and Education, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1588-1593.

³ O.F.Nazarov “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti 7-bet

⁴ O.F.Nazarov “Qashqar rubobida o‘qitish uslubiyoti 9-bet

4. Равшан Наимович Рахимов. "Оперное искусство, либретто, опера, вокал, пение" *Science and Education*, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1582-1587.
5. Равшан Наимович Рахимов. "Капелла, а капелла, хоровой коллектив. Вокал и вокальная музыка" *Science and Education*, vol. 3, no. 4, 2022, pp. 1576-1581.
6. Равшан Наимович Рахимов. "О дидактических функциях сольфеджио при обучении теории музыки" *Science and Education*, vol. 3, no. 11, 2022, pp. 776-781.
7. RR Naimovich [Methods of using interactive methods in preschool educational organizations, conducting music classes](#)
8. [RR Naimovich Rakhimov “Ways to Develop Music Perception Skills” Innovative Science in Modern Research, 2023 pp125-128](#)
9. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 10, 29-32
10. Ravshan Naimovich Rakhimov [“Ways to Develop Music Perception Skills” Innovative Science in Modern Research, 2023 pp125-128](#)
11. Naimovich, Raximov Ravshan. “musiqa bolalarning estetik idrokini shakllantiruvchi vosita sifatida.” *Journal of Innovation, Creativity and Art* (2023): 75-80.
12. Naimovich, Raximov Ravshan. “musiqa madaniyati darslarida milliy cholg ‘ulardan foydalanish.” *Ta’limning zamonaviy transformatsiyasi* 4.3 (2024): 7-11.
13. Raximov R.N. (2023). “Musiqaning shaxs tarbiyasi uchun ahamiyati”. *Inter education & global study*, (3), 40-43.
14. Рахимов Равшан Наимович. (2024). “Роль и значение музыки в созревании личности”. *Proceedings of Scientific Conference on Multidisciplinary Studies*, 3(2), 122–126. Retrieved from
15. <https://econferenceseries.com/index.php/scms/article/view/3861>
16. Rakhimov R. N. (2024). “The importance of folk songs in youth education”. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(2), 45–48. Retrieved from <http://webofjournals.com/index.php/1/article/view/771>
17. Raximov, R. N., and M. K. Akramova. “Boshlang‘icn sinf o‘quvcnilarining kuylash malakalarini tarkib toptirish”. *Journal of Innovation, Creativity and Art* (2023): 94-98.